

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR TIZIMIDA INDIVIDUAL TA'LIM – NAVIGATSION KOMPONENT SIFATIDA

**Fattoyeva Orzigul Normamadovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Magistri

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida individual ta'lim trayektoriyasini navigatsion komponent sifatida joriy etish va ta'lim tizimida individual yondashuvning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rib chiqadi. Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, shaxsni boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir talabaning individual psixologik xususiyatlarini ilmiy va tajriba asosida tushunishni anglatadi.

**Kalit so'zlar:** Trayektoriya, komponent, inklyuziv, ta'lim, shaxs, tarbiya.

### ABSTRACT

This article considers the introduction of the individual educational trajectory as a navigational component in the system of social and humanitarian sciences and the educational value of the individual approach in the educational system. Individualization in education does not mean individual training by separating a person from others, but it means taking into account special conditions in the formation of certain characteristics of a person, understanding the individual psychological characteristics of each student based on science and experience.

**Keywords:** Trajectory, component, inclusive, education, personality, upbringing.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается внедрение индивидуальной образовательной траектории как навигационного компонента в систему социальных и гуманитарных наук и воспитательное значение индивидуального подхода в образовательной системе. Индивидуализация в образовании не означает индивидуального обучения путем отделения человека от других, а означает учет особых условий в формировании определенных характеристик личности, понимание индивидуальных психологических особенностей каждого обучающегося на основе науки и опыта.

**Ключевые слова:** Траектория, компонент, инклюзив, образование, личность, образование.

Ta'lim sohasidagi kuchli va izchil siyosat, bir tomondan, jahon ta'lim standartlarining yuksak darajasiga erishishga qaratilgan bo'lishi, ikkinchi tomondan esa — xalqimizning ma'naviy-madaniy qadriyatlari va o'ziga xosligini hisobga olishi lozim. Jahon ta'lim taraqqiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti shu jarayonda joriy etilgan ta'lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlovchi xususiyatlar tushuniladi. Individual yondashuvning vazifasi – rivojlanishning individual usullarini aniqlash shaxsning imkoniyatlarini har bir faolligini ta'minlashdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi ko'pgina olimlar tomonidan tan olingan. Ammo amaliyotda pedagoglar har bir o'quvchi shaxsiga individual yondashishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar. Bunga maktabda pedagoglarning shaxs haqida ko'pgapirishlari dalil bo'ladi. Chunki ta'lim maskanida shaxsning qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan mutaxassis yo'q.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish talim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Talaba shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalari ta'limning shaxsiga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi ta'lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta'lim tizimi turli shaxsiga xos barcha xususiyatlarini (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqillik, shaxsiy fikrlarning mutloq o'ziga xos tizimga ega bo'lishi, o'z-o'zini tasdiqlash ehtiyojining mavjudligi) hisobga olgan holda, o'quvchiga uning o'ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish imkonini berish, uning o'z-o'zini rivojlantirishi, namoyon etishi uchun sharoit yaratish lozim. Zero, har qanday o'quvchi o'ziga va faqat o'zigagina xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish va namoyon etishga intiladi. Ta'limda o'quvchi shaxsiga faoliyatli yondashuv bu tizimning konsepsiyasini tashkil etadi. Bunda shaxs "sub'ekt" kategoriyasi erkinlikka intilish, yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglashiladi. O'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar o'quvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgan, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi.

Ta'lim muassasasiga ta'lim — tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish masalasi o'quv muassasasi ichki boshqaruv tizimida muhim o'rinni egallaydi. Uning maqsadi ta'lim — tarbiya ishlarini hozirgi davr talablari asosida tashkil qilish va bu boradagi ilg'or pedagogik tajribalarga asoslanish, samarali yo'llar bilan uni yanada takomillashtirishdir. Oliy ta'lim tizimida yoshlarni tarbiyalash uzluksiz tarbiyaning muxim bosqichidir. Bu bosqich yoshlarimizning hayotiy dunyoqarashini shakllanishi yakunlanayotgan va ongli ravishda o'z o'zini tarbiyalash davri hisoblanadi. Shu

sababdan oliy ta'lim muassasalarida axborotlarning oqimi ko'payib, axborot almashinuvi jarayonlari tezlashgan bir paytda ma'naviy axloqiy jarayonlarni yo'lga qo'yish tizimli yondashuvni talab qiladi, ya'ni tarbiya jarayoni ta'lim jarayoni va talabalarning ilmiy tadqiqot tayyorgarligi bilan yagona shaklda namoyon bo'ladi.

Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada, fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida ta'lim muassasasi tanlangan. Chunki ta'lim muassasasida bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Fuqaro tarbiyasi "axloqiy tarbiya" tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda "axloqiy tarbiya" tizimi quyidagicha nomlanadi:

- xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim;
- davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat;
- fuqarolik ahloqi asoslarini tarbiyalash.

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bizda «fuqaro tarbiyasi» haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas. O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan quyidagi yo'nalishda: Milliy g'oyani singdirish vositasida, ta'lim muassasasi umummilliy davlat dasturi asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir yosh avlodning iqtidorini rivojlantirishga urg'u berilmoqda.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish munosabati bilan "Bilim – butun hayot davomida har bir inson uchun" konsepsiyasiga asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etish borasida O'zbekiston tajribasini o'rganish va tasiyalar ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi tajribasini o'rganib yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilgan holda quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ta'lim sohasida, zamonaviy kadrlar talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o'rtasida xalqaro hamkorlikni muntazam rivojlantirish;

- uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish munosabati bilan "Bilim – butun hayot davomida har bir inson uchun" konsepsiyasiga asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etish;

- ta'lim tizimida ma'naviy, ma'rifiy va mafkuraviy tarbiyadan avval axloqiy tarbiyani kuchaytirish;

- har bir insonga nisbatan noyob iste'dod egasi deb qarash.

Yuqoridagi tavsiyalarga tayangan holda jamiyatda bilimli, ma'lumotli va yuksak intellektga ega yoshlarning mavqeini oshirish ta'lim tizimini isloh etishning asosiy prinsiplari bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim sohasida yuqori natijalar ko'rsata olish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Samarova Sh.R. (2020). Ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish mashqlari. "Science and Education" Scientific Journal, 1(4), 258-259-b.
2. Алиқулова М.М. Инновацион педагогика услубий қўлланма. Тошкент: Иқтисодиёт унверситети. —ТДИУ нашриёти, 2012. – 5 б.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. Toshkent: Istiqlol, 2014. 511-b.
4. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. –Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 302.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha: Ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2017. – B. 197.